

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 5/6 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Умарханова Дилдора Шарипхановна</i> ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ	9-14
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR.....	15-26
<i>Собирова Нозимахон</i> СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ	27-36
<i>Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли</i> ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ ҲУҚУҚИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ	37-45
<i>Турсунов Ойбек</i> ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА	46-53
<i>Ismoilova Aziza Alisher qizi</i> MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI	54-60
<i>Safarova Shaxlo Pulatovna</i> YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARISHLARINING INSON HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI	61-67
<i>Akbaralieva Mukhayo Karamatullo kizi</i> CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES	68-71
<i>Valijonov Daler Dilshodovich</i> PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PRACTICE OF EU MEMBERS	72-76
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i> DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY MASALALARI	77-92
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI	93-103
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ...	104-109
<i>Рахмонова Мохичехра Нодирбек кизи</i> СУВЕРЕНИТЕТ И ЮРИСДИКЦИЯ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ	110-118
<i>Худайбердиева Шоҳиста Акмал қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА	

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР	119-129
---	---------

Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li

RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH	130-136
---	---------

Fayzulloyev Shohijaxon Jobirovich

XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
--	---------

Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyaz kizi

ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO	142-147
---	---------

Raimov Elbek Bahodirovich

OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
---	---------

Alieva Kamola Ravshanovna

OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN	153-161
--	---------

Juraeva Asal

MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	162-166
---	---------

Rakhmonov Otabek

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES	167-171
--	---------

Айбек Якубов

ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ	172-178
--	---------

Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li

MA'MURIY SUD Hujjatlarini ijroga qaratishning huquqiy tartibi	179-184
---	---------

07.00.00 – TARIX FANLARI

Elmuratov Ortiq Oltiboy o'g'li

TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
--	---------

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li

URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI	193-199
---	---------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Imamov Javokhir

LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN	200-203
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna

"TAHDID" FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI	204-209
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Bawetdinov Mukhammeddin

UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI 210-215

Соҳибова Зарнигор

ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) 216-219

Jonridova Sanobar Sherali qizi

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI 220-224

Sharipova Mokhidil

PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH

LANGUAGE..... 225-231

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Abdurasul Abdurahimovich

PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D
AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH 232-237

Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY
QARASHLARI 238-245

Qalandarova Maxliyo

MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH
FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH 246-251

Чинқулова Гулмеҳра Баҳроновна

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ..... 252-258

Ibragimova Venera Azadovna

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI..... 259-264

Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA
IFODALANISHI 265-269

Received: 10 August 2024
Accepted: 15 August 2024
Published: 25 August 2024

Article / Original Paper

CHANGES IN THE CURRENT PERIOD OF DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN IMPACT ON THE IMPLEMENTATION AND DEVELOPMENT OF HUMAN RIGHTS EDUCATION

Safarova Shakhlo

Senior Lecturer of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Philosophy (PhD) in Law
E-mail: ShSafarova@uwed.uz

Abstract. In this article, the national legislation on human rights in the Republic of Uzbekistan, the stages of human rights development, the National strategy for the development of human rights, and the norms of international law are reviewed and analyzed from a scientific and theoretical point of view. At the same time, the author's scientific views on this issue are presented, paying special attention to human rights education.

Keywords: human rights, human rights education, national program, Universal Declaration of Human Rights, Constitution, national strategy.

YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRI O'ZGARISHLARINING INSON HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI

Safarova Shaxlo Pulatovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga oid milliy qonunchilik hujjatlari, inson huquqlarini rivojlanish bosqichlari, inson huquqlarini rivojlantirish bo'yicha Milliy strategiya hamda xalqaro huquq normalari ilmiy-nazariy jihatdan ko'rib, tahlili amalga oshirilgan. Shu bilan birgalikda, inson huquqlari bo'yicha ta'limga alohida e'tibor qaratib, ushbu masala yuzasidan muallifning ilmiy qarashlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlar, inson huquqlari sohasida ta'lim, milliy dastur, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Konstitutsiya, milliy strategiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N07>

XX-asrning ikkinchi yarmi va XXI-asr boshlari voqeligining asosiy tendensiyalaridan biri inson huquqlarining xalqaro masaladan milliy qadriyatga aylanishidir. Hozirgi kunda har qanday davlatning qonunchiligi va davlatchilik negizini inson huquqlari va erkinliklari, ularni hurmat qilish, ta'minlash va mustahkamlash tashkil etadi. Xususan, o'tgan yillarda O'zbekistonda ham inson huquqlariga bo'lgan e'tibor, inson huquqlarini qadrlash va ta'minlash bir necha barobar oshdi.

O'zbekiston Respublikasida ham inson huquqlarini ommalashtirish, jamiyatga to'liqroq yetkazish borasida inson huquqlari ta'limiga bo'lgan e'tibor oshib bormoqda, va buning natijasida, uzil-kesil inson huquqlari bo'yicha ta'limni amalga oshirishning milliy tizimi barpo etilmoqda.

Oxirgi bir necha yil barcha sohalarda amalda oshirilgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, *tub islohotlar* va bu borada erishilgan ulkan yutuqlar miqyosi jihatidan mustaqil O'zbekiston tarixida misli ko'rilmagan hodisa bo'ldi va mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasida yangi davrni boshlab berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan yuritilayotgan ichki va tashqi siyosat tufayli O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy makonida ham, jahon hamjamiyati nigohida ham o'zgacha – ochiq siyosatga asoslanuvchi yangilangan va jadal rivojlanayotgan qiyofada namoyon bo'lmoqda, ayni paytda, muvaffaqiyat bilan amalga oshirilgan muhim tashqi siyosiy tashabbuslar natijasi o'laroq xalqaro maydonda keng miqyosdagi yuksak natijalarga erishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida shunday degan edi: "... Bosh qomusimizning har bir moddasi biz uchun dasturilamalga, hayotimiz qoidasiga aylanishi zarur. Buning uchun Asosiy qonunimizni umumta'lim maktablarida, oliy o'quv yurtlarida, mahalla va mehnat jamoalarida tizimli ravishda o'rganish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishimiz kerak.

Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart" [1].

Aytish joizki, inson huquqlarini faqat inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni tarqatish orqaligina samarali amalga oshirish mumkin. Inson huquqlari bo'yicha ta'lim barcha insonlarni o'z huquqlari va boshqalarning ham huquqlarini himoya qilishga undaydigan qadriyatlar, e'tiqod va munosabatlarni ilgari suradi. U har bir shaxsning har qanday jamiyatda inson huquqlarini hayotda amalda bo'lishidagi umumiy mas'uliyatini haqidagi tushunchani rivojlantiradi [2].

Shu sababli ham, BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar Boshqarmasi "Inson huquqlari sohasidagi ta'lim bo'yicha milliy harakatlar rejalarini"ni ishlab chiqdi. Ushbu rahbariy tamoyillar davlatlarga Inson huquqlari sohasidagi ta'lim bo'yicha Milliy harakatlar rejalarini ishlab chiqishda yordam berishga mo'ljallangan [3].

1992-2016-yillarda O'zbekistonda inson huquqlarini o'qitishning tashkiliy-huquqiy asoslari mustahkamlanib, inson huquqlari ta'limi milliy tizimi shakllantirildi va ichki qonunchilik hujjatlarining yaxlit tizimi yaratildi va mazkur yo'nalishda bir qator zarur normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Ammo, dunyoda globallashtirish, beqarorlik va qarama-qarshilik kuchayib borayotgan sharoitda jahon hamjamiyati yangi tahdidlarga duch kelmoqda va mazkur holat barcha sohalarda munosabatlarni tartibga solishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Inson huquqlari ta'limi sohasining tashkiliy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirishning **ikkinchi bosqichi** 2017-yildan boshlanib, bugungi kunga qadar davom etmoqda. Ushbu davrda O'zbekistonda inson huquqlari ta'limini yanada samarali amalga

oshirish, ta'lim muassasalari, turli davlat va nodavlat tuzilmalarda inson huquqlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning tashkiliy va huquqiy asoslari mustahkamlandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezidenti, Hukumati va boshqa davlat organlarining inson huquqlari ta'limi masalasiga bevosita aloqador hujjatlari qabul qilindi.

Inson huquqlari bo'yicha ta'limni amalga oshirishning O'zbekiston Respublikasidagi milliy tizimining asosini xalqaro standartlar tashkil etsada, respublikamizda oxirgi yillarda xalqaro standartlar asosida shakllantirilgan yaxlit milliy-huquqiy tizim shakllantirildi, mavjud institutlarning shu sohadagi vakolatlari kengaytirildi.

Ular orasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining 2019-yil 15-iyuldagi 2600-III-son qo'shma qarori bilan tasdiqlangan "BMTning Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha milliy harakatlar dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan qabul qilingan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-46-son qarori muhim ahamiyatga ega.

Shu yo'nalishda O'zbekistonda ishlarni amalga oshirish maqsadida, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 270-bandida BMTning "Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya deklaratsiyasi" to'g'risidagi nizomini amalga oshirish bo'yicha milliy harakatlar dasturini qabul qilish [4] vazifasi belgilab qo'yildi.

Davlat dasturining 270-bandi ijrosini ta'minlash hamda inson huquqlarining umumiy madaniyatini shakllantirish maqsadlarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi tomonidan "BMTning inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha milliy harakatlar dasturi haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining Qo'shma qarori qabul qilindi [5].

Qo'shma qarorga muvofiq, BMTning Inson huquqlari sohasida ta'lim va tayyorgarlik to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha milliy harakatlar dasturi, BMTning Inson huquqlari sohasida ta'lim va tayyorgarlik to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha milliy harakatlar dasturi ijrosi yuzasidan Yo'l xaritasi tasdiqlandi.

Inson huquqlari sohasida ta'lim va tayyorgarlik to'g'risidagi BMT deklaratsiyasini amalga oshirish bo'yicha Milliy harakat dasturi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston parlamenti tomonidan tasdiqlangan [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmonida [7] ham inson huquqlari ta'limiga alohida e'tibor qaratildi va mazkur yo'nalishda ham qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirildi. Dastur doirasida Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlangan Tadbirlar

dasturi tasdiqlandi va dastur doirasida inson huquqlari ta'limiga, ya'ni mamlakatda inson huquqlarini o'qitish va bu boradagi tadqiqotchilik hamda noshirlik faoliyatiga katta e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Farmonda 2018-yil 10-dekabrda mamlakatimizdagi barcha maktab, litsey, kollej, oliy ta'lim muassasalarida Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlangan umummilliy dars o'tkazish belgilab qo'yildi [7]. 2018-yildan boshlab, mamlakatimizda 2018-yil 10-dekabrda Inson huquqlari bo'yicha umummilliy dars o'tkazish amaliyoti joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni [8] va unga ilova qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi"da ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirishda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" va "Inson huquqlarini o'rganish" maxsus o'quv kurslarini barcha ta'lim turlari bo'yicha tizimli o'rgatish nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish va o'rgatilishini tashkil qilish, maqsadli auditoriyalar (davlat xizmatchilari, pedagoglar va boshqalar) uchun majburiy kurslar (mandatory courses), tashkil etish kabi qator vazifalar qo'yilgan.

Shu o'rinda aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5997-son Farmoni bilan 2020-2024-yillarda adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida huquqiy ma'rifat va huquqiy axborotni tarqatish bo'yicha izchil manzilli ishlarni tashkil etish orqali aholining, birinchi navbatda, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish belgilab qo'yildi.

E'tirof etish kerakki, har bir davlatda inson huquqlarini ta'minlash muayyan strategik xarakterda bo'lgan hujjatga asoslanadi. Shunday hujjat bo'lib, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoni qabul qilindi. Farmon bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" va BMTning inson huquqlari bo'yicha ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalari xabarnomalari va qarorlarini ko'rib chiqish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasining asosiy vazifalaridan biri sifatida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish belgilab qo'yildi.

Akademik A.X. Saidovning qayd etishicha, Milliy strategiyada quyidagi ustuvor yo'nalishlar ko'zda tutilgan: shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni himoya qilish; inson huquqlari va erkinliklari sohasida qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga xalqaro standartlarni joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, ular monitoringini amalga oshirish; inson huquqlari sohasida huquqiy savodxonlikni oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar: sohaga doir xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, chet el davlatlarining huquqni himoya qilish milliy muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish [9].

Bevosita inson huquqlari ta'limiga oid bo'lgan yo'nalishlar sifatida Milliy strategiyada quyidagilar mustahkamlab qo'yildi:

inson huquqlari va gender masalalari bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, jamiyatda qonunga hurmatni shakllantirishning zamonaviy usullarini joriy etish;

inson huquqlari bo'yicha professional jurnalistlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, jurnalistik tekshiruvlarning huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlarni, shu jumladan sudyalalar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv markazlarida, shuningdek, maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida, akademik litsey va kollejlarda "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari" o'quv kurslarini joriy etish;

inson huquqlari sohasidagi fundamental va innovatsion tadqiqotlarni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyati, ilmiy tadqiqotlari va ishlanmalarining samaradorligini oshirish, ularning ushbu sohadagi xalqaro tadqiqotlarga integratsiyalashuvini ta'minlash, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish;

inson huquqlari sohasida axborot tarqatish bo'yicha ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada kuchaytirish, jurnalistlar va blogerlarning axborot olish va tarqatishga bo'lgan huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish [10].

O'zbekistonda inson huquqlari ta'limini amalga oshirish borasida quyilgan navbatdagi muhim qadam, shubhasiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-46-son qarorining qabul qilinishi bo'ldi.

Milliy ta'lim dasturi asosida oliy va kasbga yo'naltirilgan ta'lim muassasalarida "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari" kabi o'quv kurslarini, qiynoqqa solishga qarshi kurashish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun o'quv kurslarini, inson huquqlari va gender tengligi yuzasidan rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida o'quv kurslarini tashkil qilish, shuningdek, inson huquqlari sohasida ta'lim olish bo'yicha elektron platforma yaratish va u orqali o'quv kurslari, seminar-treninglarni "onlayn" tarzda o'tkazish, "Inson huquqlari" turkumida qo'llanma va risolalar chop etish kabi choralar belgilandi [11].

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi mustahkamlangan qoidalar borasida aholining bilimlarini oshirish, inson huquq va erkinliklarini samarali va ishonchli himoyasini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy va qonunchilikka oid chora-tadbirlar tizimini takomillashtirish maqsadida 2023-yil 12-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi

PF-70-son Farmoni qabul qilindi.

2023-yil 30-aprel kuni bo'lib o'tgan umumxalq referendumida yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda inson huquqlariga oid normalar uch baravardan ortiqqa oshirildi. Jumladan, Asosiy qonunimizning 20-moddasiga binoan: **Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.**

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari ta'limiga oid milliy qonunchilik tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda inson huquqlari bo'yicha milliy qonunchilik shakllangan bo'lsa-da, inson huquqlari ta'limi asosan qonunosti hujjatlar yordamida takomillashtirib borilmoqda. Shu sababli ham, fikrimizcha, munosabatlarni tartibga solishda qonunosti hujjatlarining salmog'i kamaytirilib, qonun hujjatlari salmog'i oshirilmog'i lozim. Shu o'rinda, yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga inson huquqlariga oid ta'limga bag'ishlangan maxsus moddaning kiritilishi ushbu sohada mavjud hujjatlar o'rtasida ixtiloflarni oldini olgan bo'lar edi.

Dunyoning turli mamlakatlarida global inqiroz va doimiy tangliklar oqibatida inson huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq ahvol keskin yomonlashgan murakkab davrda O'zbekiston uchun muhim bo'lgan qator sohalar, xususan, inson huquqlari sohasida amalga oshirilgan shiddatli islohotlar o'z samaralarini bergani diqqatga sazovor [12].

Shu bilan birga qayd etish lozimki, inson huquqlari sohasida ta'limni amalga oshirishning samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalari, davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining inson huquqlari borasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini oshirish borasida muammolarning mavjudligi bu borada ilmiy-amaliy va fundamental tadqiqotlar olib borilishini taqozo qiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir". Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // URL: <https://president.uz/uz/lists/view/2180>;
2. САФАРОВА Ш. Инсон ҳуқуқлари бўйича таълимни амалга оширишнинг шартномавий-ҳуқуқий манбалари //ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 89-95. // <https://yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/876>
3. Рахманов, Ш. Трансформация внешней политики и внешнеполитических ориентиров Республики Узбекистан и таргетирование дипломатического права международных организаций. SDU University Bulletin: Social Sciences, [S.l.], v. 53, n. 2, p. 50-63, dec. 2020. ISSN 2709-2410. Available at: <<https://journals.sdu.edu.kz/index.php/ss/article/view/326>>. 2024. doi:<https://doi.org/10.47344/sdubss.v53i2.32>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son Farmoniga 1-ilova // <https://lex.uz/docs/4168749>;
5. "BMTning inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha milliy harakatlar dasturi haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining Qo'shma qarori, 2019-yil 15-iyul, 2600-III-son; 2019 yil 15 iyul, KQ-563-III-son // <https://lex.uz/docs/4493771>;
6. Inson huquqlari bo'yicha ta'lim // <http://www.insonhuquqlari.uz/uz/menu/obrazovanie-v-oblasti-prav-cheloveka>.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/4875627> (o'z kuchini yo'qotgan).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/4149765>.
9. Саидов А.Х. Инсон ҳуқуқларини билиш ва таъминлаш // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари, 4/2022, - Б.18.
10. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasining IV-bo'limi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 22.06.2020 yildagi PF-6012-son Farmoniga 1-ilova // <https://lex.uz/docs/4872355>.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-46-son qarori // <https://lex.uz/docs/6378537>.
12. Янги Ўзбекистонда инсон қадри ва ҳуқуқлари амалда <https://parliament.gov.uz/oz/news/yangi-ozbekistonda-inson-qadri-va-huquqlari-amalda>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/6 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).